

Toshkent shahrida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-sentabr

2020- yilning yanvar-sentabrdagi kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **47,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **32,6** birlikni tashkil qildi

2020- yilning yanvar-sentabrdagi **10 786** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,5** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 4573 ta, sanoatda 1474 ta, qurilishda 1060 ta, yashash va ovqatlanishda 705 ta, tashish va saqlashda 417 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 159 tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
42,4 %



Sanoat
13,7 %



Qurilish
9,8 %



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi
1,5 %



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar
6,5 %



Tashish va saqlash
3,9 %

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar	birlikda	71293	82301	11008
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	14485	10786	-3699
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	50,3	47,5	-2,8
Sanoat	%	40,5	36,6	-3,9
Investitsiya	%	48,2	54,1	5,9
Qurilish	%	76,0	75,5	-0,5
Savdo	%	69,9	65,3	-4,6
Xizmatlar	%	49,4	44,5	-4,9
Yuk tashish	%	68,3	66,7	-1,6
Yuk aylanmasi	%	64,0	65,7	1,7
Yo'lovchi tashish	%	79,0	86,2	7,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	84,6	88,7	4,1
Eksport	%	19,9	18,3	-1,6
Import	%	61,0	53,0	-8,0



2020- yilning yanvar-sentabrda kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar - sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Chilonzor tumanida - 1408 ta, Yunusobod tumanida - 1254 ta, Mirzo Ulug'bek tumanida - 1201 ta, Uchtepa tumanida - 1111 ta, Shayxontohur tumanida - 1089 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida - 308 tani tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Toshkent shahar	14485	10786	-3699
<i>tumanlar:</i>			
Uchtemir	498	308	-190
Yunusobod	1701	1254	-447
Mirzo Ulug'bek	1525	1201	-324
Mirobod	1089	839	-250
Shayxontohur	1324	1089	-235
Olmazor	1699	1073	-626
Sergeli	858	806	-52
Yakkasaroy	991	804	-187
Yashnobod	1087	893	-194
Chilonzor	1811	1408	-403



2020- yil yanvar-sentabrda holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha ulushi, % da




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Chilonzor tumani - 13,1 %, Yunusobod tumani - 11,6 %, Mirzo Ulug'bek tumani-11,1 %, Uchtepa tumani 10,3%, Shayxontohur tumani - 10,1 %, Olmazor tumani - 9,9 %, Yashnobod tumani - 8,3 %, Mirobod tumani - 7,8 %, Sergeli tumani - 7,5 %, Yakkasaroy tumani - 7,5 %, Bektemir tumani - 2,9 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Jami	14485	10786	-3699
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	156	159	3
Sanoat	2316	1474	-842
Qurilish	1364	1060	-304
Savdo	6224	4573	-1651
Tashish va saqlash	492	417	-75
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	941	705	-236
Axborot va aloqa	501	490	-11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	194	220	26
Boshqa faoliyat turlari	2297	1688	-609

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda


	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Chilonzor tumani	1811	1408	-403
Yunusobod tumani	1701	1254	-447
Uchtepa tumani	1902	1111	-791
Mirzo Ulug'bek tumani	1525	1201	-324
Shayxontohur tumani	1324	1089	-235
Olmazor tumani	1699	1073	-626
Yashnobod tumani	1087	893	-194
Mirobod tumani	1089	839	-250
Sergeli tumani	858	806	-52
Yakkasaroy tumani	991	804	-187
Bektemir tumani	498	308	-190

2020- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Chilonzor tumanida - 1408 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda





Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Shayxontohur tumanida 44,6 birlik, Olmazor tumanida 42,2 birlik, Yashnobod tumanida 41,3 birlik, Sergeli tumanida 40,6 birlik, Uchtepa tumanida 35,1 birlik, Yunusobod tumanida 33,3 birlikni tashkil etgan. Yakkasaroy tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 16,5 birlikni to'gri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo'yicha
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
soni (har 1000 aholiga, birlikda)*




* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- Eng yuqori ko'rsatkich**
Shayxontohur tumani - 44,6 birlik;

- O'rtacha ko'rsatkich**
Yunusobod tumani 33,3 birlik;

- Eng past ko'rsatkich**
Yakkasaroy tumani - 16,5 birlik;

Bundan ko‘rinib turibdiki, Shayxontohur tumanida tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab eng yuqori darajada bo‘lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko‘paygan. Aksincha, Yakkasaroy tumanida tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o‘zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar-sentyabr holatiga ko‘ra, % da

2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 47,5 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-sentabrida 5,3 %).

YaHMning o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikni tumanlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent shahar	36,6	75,5	44,5	54,1
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	52,8	78,2	77,6	70,5
Bektemir	30,4	81,7	89,8	76,0
Yunusobod	42,3	73,8	28,0	26,3
Mirzo Ulug'bek	33,0	63,0	52,4	64,2
Mirobod	18,4	63,6	29,5	33,1
Shayxontohur	29,9	24,3	49,7	48,0
Olmazor	74,4	98,5	63,7	68,7
Sergeli	61,9	94,5	65,6	76,0
Yakkasaroy	55,6	86,0	72,2	67,8
Yashnobod	16,4	89,9	31,5	75,9
Chilonzor	74,4	70,4	40,7	53,9

Tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Olmazor (74,4 %),
Chilonzor (74,4 %),
Sergeli (61,9 %),
Yakkasaroy (55,6 %),
Uchtepa (52,8 %) va
Yunusobod (42,3 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Olmazor (98,5 %),
Sergeli (94,5 %),
Yashnobod (89,9 %),
Yakkasaroy (86,0 %),
Bektemir (81,7%) va
Uchtepa (78,2 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-


Bektemir (89,8 %),
Uchtepa (77,6 %),
Yakkasaroy (72,2 %),
Sergeli (65,6 %),
Olmazor (63,7 %) va
Mirzo Ulug'bek (52,4 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2020-yil yanvar - sentabrida

-
- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 16648,4 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 36,6 %) tashkil qildi;
 - 2 15488,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi 54,1 %) o'zlashtirildi va 2019-yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 95,0 %ni tashkil qildi;
 - 3 10086,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi 75,5 %) bajarildi va 2019 yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 %ni tashkil qildi;
 - 4 16987,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 44,5 %), 2019-yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 93,6 % ni tashkil qildi;
 - 5 chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi 65,3 % yoki 20053,2 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 97,2 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
 - 6 372,4 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi 18,3 %) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi, o'sish sur'ati 82,2% ni tashkil qildi.
 - 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 1,6 % ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 66,7 %) ko'payishi ta'minlandi;
 - 8 yo'llovchi aylanmasining esa 5,5 %ga (umumiyligi yo'llovchi tashishning 86,2%) ko'payishi ta'minlandi.




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Chilonzor tumanida - 73,9 %, Uchtepa tumanida - 55,6 %, Yashnabod tumanida - 42,3 %, Olmazor tumanida - 37,3 %, Yakkasaroy tumanida - 35,7 %, Sergeli tumanida - 34,0 %, Shayxontohur tumanida - 30,9 % ni eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida - 2,8 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa tumanida - 74,4 %, Sergeli tumanida - 70,8 %, Olmazor tumanida - 66,8 %, Yakkasaroy tumanida - 57,6 %, Mirzo Ulug'bek tumanida - 53,9 %. Eng past ko'rsatkich Yunusobod tumanida - 32,4 % ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tumanlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sergeli shahri (2518,4 mlrd. so'm), Olmazor (2246,9 mlrd. so'm), Yashnobod (2122,6 mlrd. so'm), Chilonzor (1837,6 mlrd. so'm) va Mirzo Ulug`bek (1295,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shayxontohur tumanida (796,0 mlrd.so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar bo‘yicha ulushi, % da



Tumanlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (74,4 %), Chilonzor tumani (74,4 %), Sergeli tumani (61,9 %), Yakkasaroy tumani (55,6 %), Uchtepa tumani (52,8 %), Yunusobod tumani (42,3 %), Mirzo Ulug'bek tumani (33,0 %), Bektemir tumani (30,4 %), Shayxontohur tumani (29,9 %), va Mirobod (18,4 %), tumanlari tashkil etdi. Yashnobod tumanida (16,4 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tumanlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani - 3154,4 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 101,1 %), Yunusobod tumani - 2086,2 mlrd. so'm (74,5 %), Olmazor tumani - 1462,3 mlrd. so'm (109,7 %) va Mirobod tumani - 1001,9 mlrd. so'm (80,5 %) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Olmazor tumani - 1626,1 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 %), Yunusobod tumani - 1051,3 mlrd. so'm (100,4 %), Uchtepa tumani - 954,0 mlrd.so'm(100,6%), Mirzo Ulug`bek tumani - 772,1 mlrd. so'm (100,5%) hamda Shayxontohur tumanida 262,5mlrd. so'm (100,3%) qayd etildi.





2020- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tumanlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Mirobod tumani - 2350,2 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 94,4 %), Yunusobod tumani - 1946,1 mlrd. so'm (95,1 %), Shayxontohur tumani - 1464,3 mlrd. so'm (102,7%), Bektemir tumani - 379,0 mlrd. so'm (93,2%) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **3922** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 0,3 % (12 ta.), sanoatda - 16,5 % (647 ta), qurilishda - 7,3 % (273 ta), savdoda - 31,5 % (1237 ta), xizmatlar sohasida - 44,7 % (1753 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat xizmatlar sohasida - 1,1 punktga, savdoda - 1,1 punktga, sanoat korxonalarida - 1,1 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 1,0 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasi 5,5 punktga, qurilish sohasida 4,4 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda , xizmatlar sohasi - 0,9 punktga, sanoat korxonalari - 0,9 punktga, qurilish korxonalari - 0,8 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi ximatlar sohasida - 0,3 punktga, sanoat sohasida - 0,7 punktga, savdoda - 0,5 punktga, qurilishda - 0,3 punktga oshdi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020- yillarda III chorakdagи iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020- yilning III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 332 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari - 43 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 13,0 % i), qurilish - 32 ta (9,6 % i), savdo - 141 ta (42,5 % i) va xizmatlar - 112 ta (33,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 4 ta (1,2 %).




2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida - 0,5 punktga, sanoat sohasida - 0,7 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko‘ra, 2020- yilning III choragini o‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kamaygan.

Shuningdek, o‘tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy vaziyat o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida - 1,2 punktga, qurilishda - 1,8 punktga, sanotda - 1,0 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdoda - 0,2 punktga, sanoat - 0,9 punktga, qurilish - 0,2 punktga oshdi.

